

O'ZBEK TILINI O'QITISHDA CLIL TEXNOLOGIYASI

Ashurbayeva Rukiya Kaxxarovna

DSc at the Department of Pedagogy, Bukhara State University, Candidate of pedagogical sciences, associate professor, department of Uzbek language and Literature, Russian and English languages, Bukhara state medical institute

E-mail: ashurbayeva.rukiya@bsmi.uz

<https://orcid.org/0009-0002-5342-5275>

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirish, jahon standartari asosida mutaxassislarni yetishtirish kabi islohotlarning amalga oshirilayotganligi va xalqaro hamkorlik aloqalarining rivojlanishi natijasida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida xorijlik talabalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ayniqsa, tibbiyot sohasida tahsil olayotgan xorijlik talabalar mamlakatimizdagi tibbiy ta'lim muassasalarining xalqaro reytingini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, bu jarayon o'z-o'zidan xorijlik talabalarga o'zbek tilini o'qitishning samarali usullarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Til o'qitish jarayonida faqat grammatik ko'nikmalarni shakllantirish emas, balki talabaning kasbiy faoliyatida, xususan tibbiy muloqotda samarali ishtirok etishiga xizmat qiluvchi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi — ya'ni tilni o'qitishda mazmun va tilni integratsiyalashgan holda yondashuvi — xorijlik tibbiyot talabalari uchun o'zbek tilini o'qitishda eng zamonaviy, samarali metodlardan biri sanaladi.

Mazkur texnologiya asosida tashkil etilgan o'quv jarayonida talaba bir vaqtning o'zida tilni o'rganadi va tibbiyot fanlari bilan bog'liq kasbiy kompetensiyalarini o'z ichiga olgan kommunikativ malakalarini rivojlantiradi. Bu esa o'zbek tili ta'limini kasbiy yo'naltirilgan bosqichga olib chiqadi. Shu sababli, o'zbek tilini o'qitishning dolzarbligi xorijlik talabalar uchun CLIL texnologiyasi asosida o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Hozirgi o'zbek tili ta'limida CLIL asosidagi tibbiy yo'nalish uchun metodik model ishlab chiqilmaganligi, mavjud darsliklar umumiy kommunikativ yondashuvda yaratilganligi mazkur yo'nalishda amalga oshirilishi kerak bo'lgan bir necha bosqich va ilmiy izlanishlar olib borishni talab etadi.

XXI asrda ta'lim jarayonining globallasuvi va xalqaro integratsiya jarayonlari natijasida xorijlik talabalarni milliy ta'lim tizimlariga jalb etish, xususan, O'zbekiston oliy ta'lim tibbiyot muassasalarida o'qiyotgan xorijlik talabalarga davlat tilini o'rgatish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan 28-yanvar 2026-yildagi

31-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Chet el fuqarolari uchun o'zbek tilini bilish darajasini aniqlash va malaka sertifikatini berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinganligi o'zbek tilini keng targ'ib qilish, ommaviylashtirish, xalqaro darajada rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan islohotlarning dalilidir[1]. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish metodikasi va CLIL (Content and Language Integrated Learning — Mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish) texnologiyasini qo'llash sohasida xalqaro talablar asosida til o'qitish metodikasini tashkil qilish kerakligini ta'kidlash lozim. Bu borada, jahon tilshunoslik va pedagogikada CLIL texnologiyasining nazariy asoslarini yaratishda D. Coyle, P. Hood va D. Marsh (2010)ning "CLIL: Content and Language Integrated Learning" nomli tadqiqot ishlari muhim o'rin tutadi[3]. Mualliflar CLILning asosiy komponentlarini — mazmun, kommunikatsiya, bilish (cognition) va madaniyat (culture)ni aniqlab, ularning o'zaro integratsiyasiga asoslangan o'qitish modelini ishlab chiqqanlar. P. Mehisto, D. Marsh va M. J. Frigols (2008) tomonidan yozilgan "Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education" asarida CLIL yondashuvining ikki tilli (bilingual) va ko'p tilli (multilingual) ta'lim muhitlaridagi amaliy imkoniyatlari hamda samaradorligi tahlil qilinadi[6]. Shuningdek, F. Lorenzo, S. Casal va P. Moore (2010)ning "The Effects of CLIL on Learners' Linguistic Competence: A Case Study" nomli tadqiqot ishida CLIL modeli asosida o'qitilgan o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasida sezilarli o'sish kuzatilgani ilmiy jihatdan isbotlangan (International Journal of Bilingual Education and Bilingualism, 13(5), 561–576)[5]. CLIL metodologiyasining nazariy asoslarini chuqurlashtirishda C. Dalton-Puffer (2011)ning "Content-and-Language Integrated Learning: From Practice to Principles?" nomli maqolasi (Annual Review of Applied Linguistics, 31, 182–204) ham muhim manba bo'lib, u CLILning amaliyotdan nazariyaga o'tish bosqichini tahlil qiladi[4]. Bu ilmiy manbalar CLILning o'quv jarayonidagi integrativ xususiyatini, til va mazmunni birgalikda o'qitish samaradorligini ilmiy asosda yoritadi. Mazkur xalqaro tadqiqotlar CLILning lingvodidaktik asoslarini yoritgan bo'lsa, O'zbekistonda so'nggi yillarda bu yondashuvni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish bo'yicha dastlabki izlanishlar olib borilmoqda.

Content and Language Integrated Learning (CLIL) yondashuvi dunyo ta'lim tizimlarida mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish modeli sifatida keng qo'llanib kelmoqda (Coyle, Hood & Marsh, 2010; Mehisto, Marsh & Frigols, 2008). Xorijiy tadqiqotlar CLILning lingvistik kompetensiya, kognitiv rivojlanish va akademik til ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlagan (Lorenzo, Casal & Moore, 2010; Dalton-Puffer, 2011).

Mamlakatimizda CLIL texnologiyasi asosida til o'rgatish metodikasini qo'llash va ta'lim jarayoniga samarali tabiq qilish so'nggi yillarda o'zbek olimlarining tadqiqot

ishlarida sezilarli ask etmoqda. Hozirgi paytda mavjud tadqiqotlar asosan nazariy, metodik tavsiyalar va kichik hajmli amaliy misollar bilan cheklangan. Jumladan, A. Axmadjonov va G. Sultonova maqolalarida CLIL metodining ingliz tilini o'qitishda qo'llanilishi tahlil qilinadi[2]. G.Mexmonaliyeva (2024) CLIL metodini nofilologik yo'nalishlarda o'quvchilarning chet tillarini o'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish vositasi sifatida yoritadi[7]. Maqolada ingliz va fransuz tillari misollari keltirilgan, bu esa metodning amaliy qo'llanilishini ko'rsatadi. O. Mirzayor qizi (2025) oliy ta'limda ingliz tilini o'qitish jarayonida CLILning pedagogik rolini tahlil qiladi[8]. Maqola O'zbekiston oliy ta'lim tizimida mazmun va til integratsiyasi yondashuvini amaliy jihatdan baholaydi. Z.Norquziyeva (2021) CLILni kognitiv ikki tillilik va kasbiy kommunikativ kompetensiya kontekstida ko'rib chiqadi[9]. Muallif CLILning chet til kompetensiyasini shakllantirishdagi ahamiyatini yoritadi. M.F.Qurbonova (2023) CLILni zamonaviy pedagogik yondashuv sifatida baholab, uning raqamli ta'lim muhitida qo'llanilishi imkoniyatlarini muhokama qiladi[10]. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda CLIL bo'yicha tadqiqotlar asosan, chet tillarini o'qitish yuzasidan bo'lib, xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'qitish masalasi borasida tadqiqotlar olib borilmagan.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, CLIL texnologiyasining nazariy asoslari xorijda yetarlicha ishlab chiqilgan bo'lsa-da, uni o'zbek tili ta'limida, ayniqsa tibbiy yo'nalishdagi xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'qitish jarayonida qo'llash masalasi hali to'liq o'rganilmagan. Shu bois CLIL texnologiyasining tibbiy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'qitishdagi imkoniyatlarini ochib berish, metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bilan ilmiy jihatdan yangilik kiritilishini talab qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi(2026, 28-yanvar). *Chet el fuqarolari uchun o'zbek tilini bilish darajasini aniqlash va malaka sertifikatini berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida* (31-son qaror).
2. Axmadjonov A., Sultonova G. "Content and language integrated learning" (CLIL) metodining ingliz tilini o'qitishda qo'llanilishi //Qo'qon universiteti ilmiy jurnali.–URL: <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1075>
3. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 170 p.
4. Dalton-Puffer C. Content-and-language integrated learning: From practice to principles? // Annual Review of Applied Linguistics. – 2011. – Vol. 31. – P. 182–204.
5. Lorenzo F., Casal S., Moore P. The effects of CLIL on learners' linguistic competence: A case study // International Journal of Bilingual Education and Bilingualism. – 2010. – Vol. 13, No. 5. – P. 561–576.

6. Mehisto P., Marsh D., Frigols M. J. Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. –Oxford: Macmillan Education, 2008. – 238 p.

7. Mexmonaliyeva G. CLIL metodi yordamida nofilologik yo‘nalishlarda chet tillarining o‘qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (ingliz va fransuz tillari misollarida) // SYNAPSES: Insights across the Disciplines. – 2024. – Vol. 1, No. 3. – P. 60–62. – URL: <https://inlibrary.uz/index.php/siad/article/view/63742>

8. Mirzayor qizi O. The role of CLIL (Content and Language Integrated Learning) in English language teaching in higher education // Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. – 2025. – Vol. 17, No. 1.

9. Norquziyeva Z. CLIL (Content and Language Integrated Learning), kognitiv ikki tillilik kasbiy kommunikatsiya sohasida chet tili kompetensiyasini shakllantirish // Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and Innovations. – 2021. – Vol. 2, No. 2/S. – P. 325–332. – DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss2/S-pp325-332>

10. Qurbonova M. F. CLIL – zamonaviy yondashuv sifatida // Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o‘qitishning psixologik-pedagogik jihatlari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – 2023.